

TURKIY YOZMA YODGORLIKLAR TILIDA OT- KESIM VA UNING IFODALANISHI*

ON NOMINAL PREDICATE AND ITS USE IN OLD TURKISH INSCRIPTIONS

Kasimcan SADIKOV **

ÖZ

Geleneksel gramer çalışmalarında yüklemın isim soylu olarak nitelendirilen türü görecelidir. Çünkü isim cümlelerinin yüklemi her zaman isim, sıfat, zamir, sayı adı gibi kelimelerden oluşmayabilir. Böyle cümlelerde bizim yüklem olarak kabul ettiğimiz isim soylu kelimelerden sonra mantıken vurguyu ifade eden *turur* ~ *durur* (Özbekçede *-dlr* eki) vardır. İsim cümlelerinin tamamında yüklemın yerinde söz konusu bildirmeye ihtiyaç vardır, dolayısıyla bu tür “isim cümleler” aslında yüklemine göre fiil cümleleridir. Cümlede isim soylu yüklemeler olarak algılanmasına rağmen sözdiziminde her zaman bir fiile ihtiyaç vardır.

Cümlede fiil dışındaki kelimelerin de yüklem olarak bulunabilmesini, konuşma ve yazılı metin oluşturmanın binlerce yıllık geçmişe sahip olarak tarihi lengüistik gelişime bağlamak mümkündür. Makalede Türkçe yazılı kaynaklar örneğinde isim cümleleri ve bu tür cümlelerin ortaya çıkmasındaki etkenler üzerinde durulmuştur.

Anahtar Kelimeler: Türk Yazıtları, Eski Türk Dili, Yüklem, İsim Soylu Yüklem, Bildirme.

* Bu makale 03.10.2023 tarihinde dergimize gönderilmiş; 05.10.2023 tarihinde hakemlere gönderilme işlemi gerçekleştirilmiş; 18.10.2023 tarihinde hakem raporlarının değerlendirilmesi sonucu yayın listesine dâhil edilmiştir. Söz konusu makale yayın kurulu kararıyla Özbek dilinde, geniş özet ekiyle yayınlanmıştır. Makaleye atıf şekli; Kasimcan Sadıkov, Turkiy Yozma Yodgorliklar Tilida Ot-Kesim va Uning Ifodalanishi, *Karabük Türkoloji Dergisi*, Cilt/Sayı: 6-2 (2023), Karabük 2023, s. 29-44. ISSN 2667-7253/e-ISSN 2687-3885, DOI: 107596/katud.31122023.02

** Prof. Dr., Taşkent Devlet Şarkşinaslık Üniversitesi, kasimjonsadikov@gmail.com

ABSTRACT

In traditional grammatical studies, the type of predicate that is described as noun noble is relative. Because the predicate of noun sentences may not always consist of words such as noun, adjective, pronoun, number name. In such sentences, after the noun words that we accept as predicates, there is *turur ~ dur* (-*dlr* suffix in Uzbek), which logically expresses stress. In all noun sentences, there is a need for the declaration in question at the place of the predicate, so such "noun sentences" are actually verb sentences according to the predicate. Although nouns are perceived as noble predicates in the sentence, a verb is always needed in the syntax.

It is possible to attribute the fact that words other than verbs can be found as predicates in sentences to the historical linguistic development of speech and written text creation, which has a history of thousands of years. The article focuses on noun sentences and the factors that lead to the emergence of such sentences in the example of Turkish written sources.

Keywords: Turkish Inscriptions, Old Turkish Language, Predicate, Nominal Predicate, Declarative.

Giriş

O‘zbek tilida, shu qatori turkiy yozma yodgorliklar tilida ham kesim ko‘pincha fe‘llardan tuziladi. Fe‘l turkumidagi so‘zlar o‘zining leksik-grammatik xususiyatiga ko‘ra kesimlikka moyil bolib, ularning gapdagi bosh vazifalaridan biri ham kesim bo‘lib kelishidir.

Fe‘l-kesim gapda egadan anglashilgan kimsa, jonzot, narsa-buyum, voqea-hodisalarning harakati yoki holatini bildiradi. Yozma yodgorliklardan fe‘l-kesimli gaplarga bir-ikki misol keltiramiz.

Tabyač bodunqa bāglik urī oylīn qul boltī, silik qiz oylīn kūñ boltī. – «Tabg‘ach xalqiga bek bo‘ladigan o‘g‘il bolasi bilan qul bo‘ldi, suluv qiz bolasi bilan cho‘ri bo‘ldi» (K.7).

Nečä mä opraq kedük ersä, yaımurqa yarar. – «Kiyim qancha eski bo‘lsa ham, yomg‘irga yaraydi» (DJIT,337).

Boš nāñkä idi bolmas. – «Bo‘sh narsaning egasi bo‘lmaydi» (DJIT,135).

Tay tayqa qawuşmas, kişi kişikä qawuşur. – «Тоғ тоққа қовушмайди, киши кишига қовушади [бир кун келиб бир-бири билан учрашади]» (ДЛТ,238).

Telim sözüg uqsa bolmas, yalim qaya yiqsa bolmas. – «Кўп сўзни тушуниб бўлмайди, қаттиқ тошни йиқитиб [синдириб] бўлмайди» (ДЛТ,329).

Tewäy münüp qoy ara yaşmas. – «Tuya mingan kishi qo‘ylar orasida yashirinolmaydi» (ДЛТ,345).

Qaynar ögüz keçigsiz bolmas. – «Tez oqar suv ko‘priksiz bo‘lmaydi» (ДЛТ,389).

Köklär kesäk-kesäk bolu yazdı. – «Ko‘klar kesak-kesak [ya‘ni parcha-parcha] bo‘layozdi» (Таф.175).

Gapda, o‘rni bilan, boshqa so‘z turkumlari (ot, sifat, son va b.) ham kesim bolib keluvi mumkin.

Fe‘ldan boshqa turkumdagi so‘zlar kesim bo‘lib kelishining ikki xil omili bor: birinchisi, biror bo‘lakni ajratib ko‘rsatish, uning ma‘nosini urg‘ulash; ikkinchisi, gap qurilishining grammatik-uslubiy jihatdan takomillashuvi, ortiqcha grammatik qaytariqlardan qochish, uslubiy o‘ziga xoslikka, ixchamlikka bo‘lgan intilishdir.

Shularga ko‘ra, gapda fe‘ldan boshqa so‘zlarning kesim bo‘lib kela olishini nurq va matnchilik amaliyotidagi uzoq asrli tarixiy rivojlanish natijasi, gap qurilishi, fikr ifodalashning uslubiy jihatdan takomillashuvi desa bo‘ladi.

1. Ot-kesim va uning ifodalanishi

Ot-kesimli gaplarda quyidagi holatni kuzatamiz.

Masalan, hozirgi o‘zbek tilidan olingan *Bu uy chiroyli* hamda *Mening niyatim shu* gaplarining kesimlari fe‘l emas: birinchisi – sifat, keyingisi – olmosh. An‘anaviy grammatikada ularni *ot-kesim* deb yuritiladi. Ammo ushbu gaplarning kesimi shularning o‘zi bilan shakllanayotgani yo‘q. Ularda biz kesim deb sanayotgan sifat va olmoshdan keyin mantiqan ta‘kidni bildiruvchi *-dir* bog‘lamasi turibdi: *Bu uy chiroyli(dir)*; *Mening niyatim shu(dir)*. Buning singari misollarni yana keltirishimiz mumkin: ularning hammasida ham kesim o‘rnida *-dir* qo‘shimchasi talab etiladi va bundayin «ot-kesim»li gaplarning kesimi mantiqan fe‘lga qaytaveradi.

Bunday gaplarni ot-kesimli gaplar deyishimizning o‘zi nisbiydir. Biz ularni ko‘rinishiga qarab atayapmiz. Aslida esa gapda ishlatilmayotgan o‘sha mantiqiy bog‘lama ularni kesimga aylantirayotir.

Ot-kesimlarga xos bunday hol hozirgi o‘zbek tilidagina emas, ilk va o‘rta asrlarda yaratilgan yozma yodgorliklar tilida ham kuzatiladi.

I. Biz hozirgi o‘zbek tilida ishlatayotganimiz *-dir* bog‘lamasi qadimgi turkiy tildagi *turur* ko‘makchi fe‘lining qisqargan shaklidir. Uning o‘zgarib kelishi shunday bo‘lgan: *turur / durur > -tur / -dur > -dir*.

Turur fe‘lining o‘zagi *tur-* bo‘lib, yozma yodgorliklar tilida uning ikki xil vazifasi bor: birinchisi mustaqil fe‘l, ikkinchisi esa ko‘makchi fe‘l bo‘lib keladi.

Mahmud Koshg‘ariy o‘zining «Devonu lug‘ati-t-turk» asarida *tur-* fe‘lining ma‘nolarini yaxshi ochib bergan. Birinchisi «o‘rnidan qo‘pmoq», ya‘ni «turmoq» anglamida. Bunda u mustaqil fe‘l bo‘lib keladi: *er yuqaru turdi* – «kishi va boshqalar o‘rnidan turdi». Koshg‘ariy bu fe‘lning kelasi zamon shakli va masdarini ham keltirgan: bular *turur, turmaq* shakllaridir.

Turur ko‘makchi fe‘liga esa olim shunday ta‘rif beradi: «*turur* – o‘tgan zamon va masdar shakllari bo‘lmagan kelasi zamon fe‘lidir. ... Bu so‘z biron bir narsaning so‘zlanayotgan vaqtda o‘z ornida barqaror ekanini anglatadi. Chunonchi, *ol ewdä turur*, ya‘ni «u uydadir», demakdir. Bu gapda bu so‘z «tik turmoq» ma‘nosida emasdir yoki *er sögäl turur* – «kishi kasaldir», demakdir. Bu yerda «tik turmoq» ma‘nosida emas» (DJIT,386).

Yoki boshqa bir o‘rinda *tur-* fe‘lining quyidagi ma‘nolarini ko‘rsatgan: birinchisi, «qo‘pmoq, o‘rnidan turmoq». Bunga keltirgan mosoli shunday: *er yuqari turdi* – «kishi va boshqalar tik turdi».

So‘zning ikkinchi ma‘nosi «yog‘di, paydo bo‘ldi» deb yozadi olim. Bunga keltirgan misoli shunday: *tuman turdi* – «tuman paydo bo‘ldi».

Lug‘at tuzuvchining qayd etishicha, ushbu mustaqil fe‘lning kelasi zamon shakli *turur*, masdari esa *turmaq* shaklidir (DJIT,210).

Koshg‘ariy *turur* ko‘makchi fe‘li to‘g‘risida esa shunday yozadi: *turur* – o‘tgan zamon shakli va masdar shakli yo‘q, kelasi zamon fe‘lidir. U bog‘lama ma‘nosida (keladi): *ol taš turur* – «u toshdir»; *ol quš turur* – «u qushdir». Bu bog‘lama – tamomlovchidir (DJIT,210).

Turur bog‘lamasi bilan ishlatilgan misollar.

«Qutadg‘u bilig» asarining arab yozuvli Namangan va Qohira nusxalarida shunday bayt bor:

«*Beg*» *ati* «*bilig*» *birlä bayliy turur*,

«*Bilig*» «*lām*»i *ketsä*, «*beg*» *ati qalur* (QBN.76a,6; QBQ.53a,13).

Mazmuni: «*Beg*» oti «*bilig*» bilan bog‘liqdir,

«Bilig» «lom»i ketsa, «beg» oti qoladi [ya'ni «bilig» so'zidan «lām» harfi ketsa, «beg» so'zi qoladi].

Ushbu baytda muammo san'ati ishlatilgan. Unda «bilig» va «beg» so'zlarining arab xatidagi yozilishiga ishora qilinib, bu ikki so'zning mohiyatan ham o'zaro bog'liqligi uqtirilmoqda.

Ko'makchi fe'l fazifasidagi *turur* eski o'zbek tili – «chig'atoy turkiysi» davri yodgorliklarida ham keng ishlatilgan. Masalan, XV yuzyillikda uyg'ur xatida bitilgan «Rohatu-l-qulub» asarida:

Qanā'attin yaxširaq zāhidlik yoq turur (PK,147a); *Ol yīyač bir yīl turur. Dayī ol on iki butayī on iki ay turur. Dayī ol otuz yapraq – bir yūzi aq, bir yūzi qara – otuz kün bilā tūn turur. Dayī ol har bir yapraq qatindayī beš miva beš vaqt namāz turur* (PK,144b–145a).

Yozma yodgorliklar tilida gapning ot-kesimlari ot turkumidagi so'zlar bilan, shuningdek, sifat, son, olmosh, ravish, harakat nomi, modal so'zlar bilan ifodalanadi. Tabiiyki, bunday gaplarning kesimi mantiqan *turur* fe'lini talab qiladi. Buni bir nechta misolda ko'rib chiqamiz.

«Devonu lug'ati-t-turk» asarida shunday maqol bor: *Erdām bašī til*. Ma'nosi: «Odobning boshi til» (DJIT,55). Maqol sodda gap shaklida bo'lib, uning egasi – *bašī* (ya'ni «boshlanishi»), kesimi esa – *til*; hozirgi an'anaviy grammatik qoidaga ko'ra ot-kesim bo'ladi. U mantiqan o'zidan keyin *turur* bog'lamasini talab qiladi: *til turur*, ya'ni «tildir».

Yuqoridagi maqolning mantiqiy fe'l-kesim bilan tiklangan shakli (transformatsiyasi) shunday bo'ladi: *Erdām bašī til (turur)*.

Boshqa bir maqol: *Qul – yayī, it – bōri*. Mahmud Koshg'ariyning izohicha, «Qul – yov, u qo'lidan kelsa, egasining molidan olib, fursat topib, qochishning payida bo'ladi. It ham xonadon uchun bo'ridir. Chunki u yeydigan narsa topsa, undan o'zini tiya olmaydi. Bu maqol qulning xo'jayiniga oz vafo qilishini bildirish uchun aytilgan» (DJIT,138).

Ushbu maqol bog'lovchisiz qo'shma gap shaklida bo'lib, birinchi gapning kesimi – *yayī*, ikkinchi gapniki esa – *bōri*. Har ikkala kesim ham mantiqan *turur* bog'lamasini talab qiladi. Gapda uslub jihatdan tushirilgan ana shu bog'lamani joyiga qo'ysak, maqolning mantiqiy fe'l-kesim bilan tiklangan shakli quyidagi ko'rinishga ega bo'ladi: *Qul yayī (turur), it bōri (turur)*.

Yoki qadimgi halq og'izlarida: *Oylan biligsiz*, deydi. Ma'nosi: «Bolada aql yoq», degani (DJIT,155). So'zma-so'z «Bola – aqlsiz».

Ushbu maqolning mantiqiy fe'l-kesim bilan tiklangan shakli quyidagi ko'rinishga ega bo'ladi: *Oylan biligsiz (turur)*.

Maqolda shunday kelgan: *Yawlaq tilliy begdān kerū yaliñus tul yeg*. Ma'nisi: «Tili yomon, so'kong'ich erli bo'lgandan ko'ra beva o'tgan yaxshi» degani (DJIT,368). Ushbu gap kesimining tiklangan ko'rinishi *yeg (turur)* – «yaxshi(dir)» bo'ladi.

Ot-kesim fe'lining harakat nomi shaklida ham kelishi mumkin. Masalan, «Rohatu-l-qulub» asarida:

Rasūl alayhi salām aytur: Yigirmi iš bar-kim, āgār kim ersā ol islārni qīlsa, yoqsuzluq, miñnat, qayyu paydā boļay:

Biri, tōšāktin yalañyač qopup yazīya barmaq; İkinçi, arīysiz yürümäk; Üçünçi, ötmäk uşayin yergä tökmäk; Törtünçi, soğannñ, sarmisaqnñ terisini küydürmök ... (PK,147a).

Ot-kesimning modal so'zlar bilan ifodalanishiga misol. Mahmud Koshg'ariy «yara» ma'nosidagi *baš* so'zini izohlash uchun shunday maqolni keltirgan: *Kōni barir keyikniñ közindä adin bašī yoq*. Ma'nosi: «Hech qayoqqa qaramay, to'g'ri ketayotgan kiyikning ko'zidan boshqa yarasi yo'q» deganidir (DJIT,374).

Yoki «Rohatu-l-qulub» asarida: *Hiç nāmā 'ilimdin asiylīyraq yoq* (PK,146a); *'İlimdin yaxši qulawuz yoq* (PK,146b).

Bunday hollarda ham kesim *turur* bog'lamasini talab qiladi: *yoq (turur)* singari.

Uyg'ur yozuvli qadimgi turkiy vasiqalarda guvohlarning ismi-sharifi qayd etilgan komponent, odatda, bog'lovchisiz qo'shma gap shaklida berilib, soddaga gaplarning ega va kesimlari o'zaro teng munosabatli bo'ladi. Masalan: *Tanuq – Qutadmış Qaya, tanuq – Señičün* («Guvoh – Qutadmish Qaya, guvoh – Sengichun») (TX,43,2.25v–26v). Tabiiyki, bunday gaplarda mantiqan *turur* fe'li talab qilinadi.

Shu o'rinda muhim bir misol. Mungusuz Qayanig Turmish Temurga bergan tilxatida oldi-berdi to'g'risidagi ma'lumotdan so'ng, qoidaga ko'ra, guvohlarning ismi-sharifi qayd etilgan. O'sha joyda kishilar o'rtasidagi kelishuv jarayoni *söz*, unda guvoh bo'lib qatnashayotganlar *bu sözkä ... tanuq* deya tilga olingan: *Bu sözkä Qora Qidar tanuq, Küč-Temür, Ač-Buqa, Tügäl Q(a)ya, Buyan Q(a)ya tanuq* («Bu so'zga Qo'ra Qidir guvoh, Kuch-Temur, Ach-Buqa, Tugal Qaya, Buyan Qaya guvoh») (TX,47,11–12).

Shunga binoan, yuqorida keltirilgan *Tanuq – Qutadmış Qaya, tanuq – Señičün* gapining to'liq tiklangan ko'rinishi (*Bu sözkä tanuq – Qutadmış Qaya (turur), tanuq – Señičün (turur)*) yoki (*Bu sözkä Qutadmış Qaya tanuq (turur), Señičün tanuq(turur)*) shaklida bo'ladi.

Gaplarda usluban tushiriladigan bog'lama bilan uslubiy ixchamlik talabiga ko'ra tushiriladigan fe'l-kesimni qorishtirmaslik kerak. Ikkovi boshqa-boshqa hodisadir. Fe'l-kesimi tushirilgan gaplarga mosol.

«Devonu lug'ati-t-turk»da: *Alp çerigdä, bilgä tirigdä*, degan maqol bor. Ma'nosi: «Botir jang alangasida (sinaladi), dono majlisda (sinaladi)» degani (DJIT,156). Ushbu maqol qo'shma gap shaklida bo'lib, uning har ikkala gapida kesimlari tushirilgan. Ular, gapning mazmuniga ko'ra, majhul nisbatdagi *sinalur* («sinaladi») yoki *bilinür* («bilinadi») fe'llaridir.

Maqolning fe'l-kesimini o'rni-o'rniga qo'yib tiklangan shakli shunday bo'ladi: *Alp çerigdä (bilinür), bilgä tirigdä (bilinür)*.

Yana bir misol.

Quldaçıqa miñ yayaq, barça bilä ayruq tayaq. Aytmoqdaki: «Tilanchiga mingta yong'oq, bularning ustiga yana suyanadigan hassa ham berishim kerak» (DJIT,167).

Qo'shma gap shaklidagi ushbu maqolda *bergil* fe'li tushirilgan. Ularni tiklaganda birinchi gapda *bergil*, ikkinshi gapda esa ta'kid yuklamasi bilan qo'shib aytamiz. Shunda maqolning fe'l-kesimlarini o'rni-o'rniga qo'yib tiklangan shakli quyidagi ko'rinishga ega bo'ladi: *Quldaçıqa miñ yayaq (bergil), barça bilä ayruq tayaq(-ma bergil)*.

O'tmishda xoqonlarning yorliqlari, rasmiy bitigllari ularning unvoni bilan boshlangan. Masalan, Ikkinchi turk xoqonlig'i zamonida yurtga egalik qilgan Bilga xoqon o'z yorliqlarini *Täñri-täg Täñri yaratmiş türk Bilgä qayan sabim* («Ko'kday ulug' Tangri yaratgan qudratli Bilga xoqon so'zim») unvoni bilan boshlagan (*qarang*: X.1).

Unvonning to'liq transformatsiyasi (*Bu ben, Täñri-täg täñri yaratmiş türk Bilgä qayan(niñ) sabim (turur)*). – «(Bu men,) ko'kday (ulug') tangri yaratgan qudratli Bilga xoqon(ning) so'zim (turur/-dir)» shaklida anglanadi.

Muhimi shundaki, Bilga xoqon unvoni o'z davrininggina emas, o'rta asrlarning barcha rasmiy-diplomatik hujjatchiligi uchun andoza bo'lib xizmat qildi. Turkiy saltanatlarning egalari o'z yorliqlarini, o'zga mamlakatlarga yo'llagan diplomatik xatlarini ana shunday unvonlar bilan boshlaganlar.

Keyingi yuzyilliklarda unvonlarga yana bir komponent qo'shildi: yorliq beruvchi bilan birga adresat (yorliq yo'llanuvchi kimsa yoki tomon) ham kiritildi. Jumladan, Oltin O'rda xoni To'xtamishning 1393 yili polyak qiroli Yag'ayliga yollagan yorlig'i *Toxtamış sözüm Yayaylaya* (To'xtamish so'zum Yag'aylaga) deb boshlangan (T.1–2).

Bu o'rinda *Toxtamış sözüm* – unvon; undagi *Toxtamış* – adresant (intitulatio); sharq manbashunosligida xat egasi, xat yollovchini *mursil* deyilgan

(*qarang*: Ҳақимов 2013,19,207); *sözüm* – yorliqning xonga tegishlilikini, uning o‘z og‘zidan aytilayotganligini dalillovchi kalom. *Yaqaylaya* – yorliq yollanayotgan kimsa (adresat – *inscriptio*)ni bildiradi, shuning uchun u jo‘nalish kelishigida. Adresat sharqona tilda *mursal* bo‘ladi (*qarang*: Ҳақимов 2013, o‘sha joyda).

Endi unvonning to‘liq tiklangan shakli (transformatsiyasi) ham o‘zgaradi: (*Men,*) *Toxtamiš(niñ) sözüm Yaqaylaya (bolsun)* yoki (*Bu men,*) *Toxtamiš(niñ) sözüm Yaqaylaya (turur)*, ya‘ni «(Men) To‘xtamish(ning) so‘zim Yag‘aylaga (bolsin / -dir)» shaklida bo‘ladi.

II. Til tarixida fe‘lning shaxs-son qo‘shimchasi ham gapning kesimini shakllantira oladi. Buni quyidagi misolda ko‘rib chiqamiz.

Ikkinchi Turk xoqonlig‘i davridan qolgan To‘nyuquq bitigi shunday boshlangan (Ton.1 - transliteratsiyada):

B‘IL‘G‘Ä : TOÑuQuQ : B‘än‘ÖZüM : TaBĞaÇİL‘iDÄ : QİLNTiM

S.E. Malov buni *Bilgä Toñuquq bän özüm Tabyač ilijä qilintim* deb o‘qib, mazmunini ruscha: «Я сам, мудрый Тоньюкук, получил воспитание под влиянием культуры народа табгач» deb tarjima qilgan (Malov 1951,61,64).

H.N. Orkun buni turkchaga «Bilge Tonyukuk ben kendim Çin ülkesinde vücut buldum» deb o‘g‘irgan (Orkun 1987,100).

G‘. Abdurahmonov va A.Rustamov bu jumlani o‘zbekchaga: «Bilga To‘nyuquq men o‘zim Tabg‘ach davlatida tarbiyalandim» deb o‘g‘irgan (Абдурахмонов, Рустамов 1982,71).

U. Sertkayaning urg‘ulashicha, bu yerda ikkita jumla bor: matndagi *bän* shaxs-son qo‘shimchasi bo‘lib, birinchi jumlaning kesimini shakllantiradi. Undan keyingi *özüm* ni esa keyingi jumlaning egasi sifatida o‘qilgani ma‘qul: *Bilgä Toñuquq-bän. Özüm Tabyač älijä qilintim*. Shunda ma‘no ham o‘zgaradi: «(Men) bilga To‘nyuquqman. O‘zim Tabg‘ach yurtida voyaga yetdim» (Sertkaya 1995,41–44).

Haqiqatan, bitigning ilk jumlasini *Bilgä Toñuquq, bän özüm Tabyač älijä qilintim* deb o‘qib, mazmuni «Bilga To‘nyuquq, men o‘zim Tabg‘ach mamlakatida voyaga yetdim» deya talqin etilganda bitigning rasmiy mavqei susayadi; go‘yo u oddiy tarjimai holday bo‘lib qoladi.

To‘nyuquq xoqon emas, qolaversa, uning bitigi yurt egasining yorlig‘i ham emas. U biografik xarakterdagi asar. Bitig To‘nyuquqning kim o‘tgani, xalq va yurt erki yo‘lida xoqonlar bilan yelkama-yelka turib kurashgan milliy qahramonning ulug‘ xizmatlarini xoqonliq oldida, kelajak avlodga yana bir bor ta‘kidlab qo‘yish uchun yozilgan xotirasidir. Ушбу нуктаи назардан битиг

расмий тус олади. Shuning uchun boshlovchi jumlani *Bilgä Toñuquq-bän* («(Men) bilga Tonyuquqman») deb berilgani to'g'ri.

Ushbu boshlovchi jumlani uch komponentga ajratish mumkin: birinchisi – muallifning unvoni (*bilgä*); ikkinchi komponent – oti (*Toñuquq*), unga qo'shilayotgan *-bän* – uchinchi komponent - shaxs-son qo'shimchasi bo'lib, kesimlikni ta'minlaydi. Ushbu jumla quyida berilgan matn To'nyuquqning so'zlari ekaniga ishoradir. Shundan so'ng *Özüm Tabyač älinä qilintim* («O'zim Tabg'ach elida voyaga yetdim») jumlasini bilan asosiy qismga ko'chiladi.

Jumlaning bunday shaklda oqilishi bitigning rasmiy maqomini ham ta'minlaydi, muallifning maqsadiga ham mos tushadi.

Matnni ana shu ko'rinishda bashlash epigrafik matn bitish tarixida keng tarqalgan edi. Yenisey tevaragidan topilgan bitiglarni bunga misol qilib ko'rsatish mumkin.

Yenisey bitiglarida marhumning ko'zi tirikligida erishgan yutuqlari, yetisha olmagan armonlari uning o'z tilidan hikoya qilingan. Ularning ayrimlari To'nyuquq bitigidagi singari qabr egasini tanitishdan boshlanadi.

Masalan, Kulug apa bitigi: *Külüg apa-ben.* – «(Men) Kulug apamen» (E.20.2); Yaruq tigin bitigi: *Er atim Yaruq tigin-ben.* – «Er otim Yaruq tigindirmen» (E.19.1); El To'g'an bitigi: *Atim El Toyän Tutuq-ben.* – «Otim El To'g'an Tutuqmen» (E.1.2); Ko'k tirig bitigi: *Er atim Kök Tirig-ben.* – «Er otim Ko'k Tirigmen» (E.51.1); Beg Tarqan O'ga Tirig bitigi: *Beg Tarqan Ögä Tirig-ben.* – «(Men) Beg Tarqan O'ga Tirigmen» (E.53.3) deb boshlangan. Buning singari misollar talay. Bari epigrafik matn tuzishda adib va tarixchi To'nyuquq boshlab bergan an'anaga ergashadi.

Muhimi, ushbu boshlamalarning barida bitig egalari otlari va unvonlaridan so'ng *turur* ko'makchisi talab qilinadi, shaxs-son qoshimchalari esa mantiqan ana shu fe'lga bog'lanadi: (*Ben*) *Qutlug Čigši (turur)-ben,* ya'ni «(Men) Qutlug' Chigsi(dir)men» singari.

Xuddi shu hol Tonyuquq bitigida ham mavjud.

Anglashiladiki, Tonyuquq bitigida muallif o'z xotiralarini *Bilgä Toñuquq-bän. Özüm Tabyač älinä qilintim* («(Men) bilga Tonyuquq-man. O'zim Tabgach elida voyaga yetdim») jummalari bilan boshlagan.

Bitigning ilk *Bilgä Toñuquq-bän* jumlasida shaxs-son qo'shimchasi otga to'g'ridan-to'g'ri bog'lanayotgani yo'q. U kesimlikni ta'minlayotgan *turur* fe'lga bog'lanayotir. Ana shuni ko'zda tutganda gapning to'liq tiklangan ko'rinishi va mazmuni shunday bo'ladi: (*Ben*) *Bilgä TONUQUQ (turur)-ben. Özüm Tabyač älinä qilintim,* ya'ni «(Men) Bilga To'nyuquq(dir)men. O'zim Tabg'ach elida voyaga yetdim».

III. Yozma yodgorliklar tilida ta'kid ma'nosini beruvchi *-ol* bog'lamasi ham kesimlikni ta'minlaydi.

Mahmud Koshg'ariyning yozishicha, *-ol* – ot va fe'llarga qo'shiladigan ta'kid qo'shimchasidir. Bunga keltirgam misollari shunday: *ol meniñ oylum-ol* – «u haqiqatan mening o'g'limdir»; *ol ewkā barmiš-ol* – «u uyga haqiqatan borgandir» (ДЛТ,30).

Qadimgi turkiy tilda ushbu qo'shimcha fikr tugalligi, aniqligini bildirib, vazifasi hozirgi o'zbek tilidagi *-dir* ga to'g'ri keladi. Misollarga e'tibor bering:

Türk bodun yämä bulyanč-ol, tämiš. Oyuzi yämä tarqanč-ol, tämiš. – «Turk xalqi ham sarosimadadir, – debdi. – O'g'uzi ham tarqoqdir, – debdi» (Ton.22).

Yusuf Xos Hojibning «Qutadg'u bilig» asarida:

Uquš körki til-ol, bu til körki – söz,

Kiši körkü yüz-ol, bu yüz körkü – köz.

«Uquvning ko'rki tildir, bu tilning ko'rki – so'z,

Kishining ko'rki yuzdir, bu yuzning ko'rki – ko'z» (QBH.10a,23).

Bu Küntuydi tegli törü-ol köni,

Bu Aytoldi tegli qut-ol, kör anı.

«Bu Kuntug'di degani(m) chin adolatdir,

Bu Oytoldi degani(m) baxtdir, unga bir boqqin» (QBN.19b,12).

Yoki uyg'ur yozuvida bitilgan qadimgi turkiy vasiqalarning xotimasida hujjatlarga urilgan tamg'alarning kimga tegishli ekanligini anglatuvchi komponentlar shunday beriladi:

Bu tamya biz, ikägüniñ-ol. – «Bu tamg'a biz, ikkimiznikidir» (TX.1,18v).

Bu tamya men, Titsuniñ-ol. – «Bu tamga men, Titsunikidir» (TX.1,20v).

Arab yozuvli turkiy matnlarda *-ol* bog'lamasi *alif-vāv-yā* [ya'ni ۱۷] bilan yozilib, o'zi bog'lanayotgan so'zdan ajratiladi. Hozirgi nashrlarda esa bu ko'rinishini ba'zan *ol* olmoshi bilan qorishtirib yuborish hollari ham uchrab turadi. Bir misol keltiramiz.

Mahmud Koshg'ariy o'zining «Devonu lug'ati-t-turk» asarida *-yan, -gän / -qan, -kän* qoshimchasi bilan hosil qilingan sifatdoshlar to'g'risida so'z yuritar ekan, ular harakat va holatning izchil qaytalanib turuvchi ma'nosini ham berishini ta'kidlaydi. Bunday so'zlarni u alohida guruhga ajratgan. Shu o'rinda *-ol* bog'lamasini bilan kelgan jummalarni misol qilib keltiradi.

Muhimi shundaki, asarning ayrim hozirgi nashrlarida bu jumlalardagi bog'lamani ko'rsatish olmoshi bilan qorishtirib yuborganlar.

Masalan, asarning 1960 yilgi Toshkent nashrida: *ol bu ot ol kishini udityan* gapini hozirgi o'zbekchaga «bu dori u odamni har vaqt uxlatadi» deb; *ol kishi ol yoldan azityan* gapini «bu odam kishini doim yo'ldan ozdiradi»; *bu er ol söz unityan* gapini «bu odam doim so'zini unutadi»; *bu aş ol kishini açuryan* gapini esa «bu ovqat odamning qornini tez ochiradigan; tez hazm boladigan» deb ogirganlar (*qarang*: Mutallibov I.169–171).

Yuqoridagi misollar hozirgi o'zbek tiliga to'g'ri o'girilgan emas. Yaxshi tomoni, unda harakat va holatning izchil qaytalanib turuvchi ma'nosi berilgan. Biroq, katta kamchiligi, *-ol* bog'lamasining ma'nosini o'girmada bera olmaganlar; u kishilik va ko'rsatish olmoshlari bilan qorishtirib yuborilgan.

O'zbekcha o'girmanini to'g'ri berish uchun, birinchi galda, transkripsiyada *-ol* bog'lamasini o'zi birikayotgan so'zga chiziqcha bilan bog'lab chiqqanimiz yaxshi. Ana shunda gapping ma'nosini tushunish va hozirgi tilga o'girish qulay kechadi.

Ik jumladagi *-ol* bog'lamasini *ot*, ya'ni «dori» so'zini ta'kidlash uchun; ikkinchi gapda *kishi* so'zini, uchunchisida *er* ni, so'nggisida esa *aş* so'zini ta'kidlash uchun ishlatilayotir. *-yan* qo'shimchasini olgan sifatdoshlarga esa, izchil qaytalanib turuvchi ma'no yuklab chiqamiz. Ana shunda o'girmamiz ancha tekis va grammatik jihatdan to'g'ri chiqadi.

Endi o'qib ko'ring: *ol bu ot-ol kishini udityan* – «bu o'sha, kishini uxlatib qo'yadigan doridir»; *ol kishi-ol yoldan azityan* – «u odamlarni doim yo'ldan ozdiradigan kishidir»; *bu er-ol söz unityan* – «bu, so'zini unitadigan kishidir»; *bu aş-ol kishini açuryan* – «bu, kishining qornini tez ochiradigan, tez hazm bo'ladigan ovqatdir» (*qarang*: DJIT,76).

«Devonu lug'ati-t-turk»ning quyidagi ikki nashrida ham bu gaplar to'g'ri tarjima qilingan: A. Erjilasun va Z. Akkoyunluning birgalikda chop ettirgan turkcha tarjimasida ushbu jumlar quyidagicha: «bu, insani davamlı uyutan ilaştır», ya'ni «bu, insonni davomli uxlatadigan doridir»; «bu, insanları davamlı yoldan çıkararı insanđır», ya'ni «bu insonlarni davomli yo'ldan chiqaradigan insondir»; «bu, sözü çok unutan adamdır», ya'ni «bu so'zni ko'p unitadigan odamdir»; «bu, çabuk hazmedilen ve çabuk açiktıran yemektir», ya'ni «bu, tez hazm etiladigan va tez ochiqtiradigan yemakdir» (*qarang*: DLT,79–80).

A. Rustamov asarning ruscha nashrida yuqoridagi jummalarni shunday tarjima qilgan: «это – лекарство, которое всегда усыпляет человека»; «это человек, который вечно сбивает людей с [правильного] пути»; «это – человек, который часто забывает слова»; «это – пища, быстро переваривающаяся, быстро вызывающая голод» (*qarang*: СТС.I.156–158).

Xulosa qilib aytganda, turkiy tillarda gapning kesimi fe'llar bilan ham, fe'ldan boshqa so'z turkumlari bilan ham ifodalanadi. Fe'ning kesim bo'lib kelishi uning eng muhim grammatik belgisidir.

SONUÇ / XULOSA

Nutqda ham, matnda ham ot-kesim, birinchi galda, biror bo'lakni ajratib ko'rsatish, ma'noni urg'ulash, ya'ni gap urg'usi (logik urg'u)ni ta'minlashga xizmat qiladi. Nutqda ushbu bo'lak boshqalariga qaraganda kuchliroq aytiladi. Shuning bilan birga, gap qurilishining grammatik-uslubiy jihatdan takomillashuvi, gap qurilishida bir xil qaytariqlardan qochish, uslubiy go'zallikka, ixchamlikka intilish prinsipidan kelib chiqqan holda fe'ldan boshqa turkumdagi so'zlar ham kesim bo'lib kela oladi.

Gapda fe'ldan boshqa so'zlarning kesim bo'lib kela olishini nutq va matn tuzish amaliyotidagi yuz yillar davomida kechgan uzoq tarixiy-lingvistik takomil natijasi, desa bo'ladi. Biroq kesimning fe'ldan boshqa so'zlar bilan ifodalanishi nisbiy holatdir. Chunki u ot-kesim bo'lgani bilan, har qanday holatda, mantiqan *turur*, hozirgi o'zbek tilida esa *-dir* bog'lamasini talab qiladi. Demak, gap qurilishida har qachon ham mantiqan fe'lga zarurat tug'iladi.

Kisaltmalar

DLT – SADIKOV, K., *Mahmud Koshg'ariy, Devonu lug'ati-t-turk, [Turkiy so'zlar devoni]*, Taşkent 2017.

DLT – ERCİLASUN, A.B., AKKOYUNLU, Z., *Kâşgarlı Mahmud. Dîvânü Lugâti't-Türk. Giriş-Metin-Çeviri-Notlar-Dizin*, Ankara 2014.

E – Yenisey bitigleri: MALOV, S. Y., *Yeniseyskaya pismennost Tyurkov, Teksti i Perevodi*, Moskova-Leningrad 1952.

K – Kul tigin bitigi: *Ka* – kichik bitig, *K, Kb* – ulug' bitig, *K.I-III, Kc* – toshning taroshlangan qirralari va ters tomonidagi yozuv.

PK – SADIKOV, K., “Rohatu-l-qulub” kitobi”, *Islom tafakkuri*, maxsus son, Taşkent 2019, s. 97-108.

CTC.I. – RUSTAMÍ, A., *Mahmud Kâshgari, Divânü lugâti-t-turk (Svod Tyurkskih Slovo)*, C 1, Taşkent 2017.

Ton. – Tonyuq bitigi: AMANJOLOV, A.S., 2003, s. 175-188; SADIKOV, K., 2018, s. 233–248.

T – To'xtamish xonning Yag'ayliga yo'llagan yorlig'i: SADIKOV, K., 2016, s. 120-123.

TX – uyg'ur yozuvli turkiy hujjatlar: SADIKOV, K., 2016, s. 15-118.

Taqf. – «Turkiy tafsiri»: BOROVKOV, A.K., *Leksika Sredneaziatskogo Tefsira XII–XIII vv.*, Moskova 1963.

X – Bilga xoqon bitigi; toshning yuz tomonidagi yozuv. Nashri: SADIKOV, K., 2004, s. 112-120.

QB – Yusuf Xos Hojibning «Qutadgʻu bilig» asari: *H* – Vena (Hiro) nusxasi: *Yusuf Has Hacib*. Kutadgu Bilig. A. Viyana Nüshası (Tıpkıbasım). – Ankara, 2015; *N* – Namangan (Fargʻona) nusxasi: *Yusuf Has Hacib*. Kutadgu Bilig. B. Fergana Nüshası (Tıpkıbasım). –Ankara, 2015; *Q* – Qohira nusxasi: *Yusuf Has Hacib*. Kutadgu Bilig. C. Kahire Nüshası (Tıpkıbasım). – Ankara, 2015.

KAYNAKÇA

ABDURAHMONOV, Gʻ., RUSTAMOV, A., *Qadimgi Turkiy Til*, Taşkent 1982.

AMANJOLOV, A.S., *İstoriya i Teoriya Drevnetyurkskogo Pisma*, Almatı 2003.

HAKİMOV, M., *Sharq manbashunosligi lugʻati*, Taşkent 2013.

MALOV, S.Y., *Pamyatniki Drevnetyurkskoy Pismennosti*, Moskova-Leningrad 1951.

MUTALLİBOV, S., *Mahmud Koshgʻariy, Turkiy soʻzlar devoni (Devonu lugʻatit-turk)*, I–III, Taşkent 1960-1963.

SERTKAYA, O.F., *Göktürk Tarihinin Meseleleri*, Ankara 1995.

SADIKOV, K., *Koʻk turk Bitigları: matn va uning tarixiy talqini*, Taşkent 2004.

SADIKOV, K., *İlk va oʻrta asrlarda yaratilgan turkiy hujjatlar*, Taşkent 2016.

SADIKOV, K., *İlk orta asrlarda Markaziy Osiyoda kechgan etno-lingvistik jarayonlar*, Taşkent 2018.

ORKUN, H. N., *Eski Türk Yazıtları*, Ankara 1987.

Genişletilmiş Özet

Özbekçede olduğu gibi Eski Türk yazılı anıtların dilinde de yüklem genellikle fiillerden oluşur. Sözcüksel-dilbilgisel özelliklerine göre, fiil grubunun sözcükleri yüklem olmaya eğilimlidir ve cümledeki ana işlevlerinden biri yüklem olmasıdır.

Fiil soylu yüklem, bir cümlede özne görevinde olan bir kişinin, canlının, eşyanın veya olayın eylemini veya durumunu bildirir. Yazıtlardan fiil soylu yüklemelere birkaç cümle örneği vereceğiz.

Tabyaç bodunça bāglik urī oylīn qul boltī, silik qiz oylīn kūñ boltī. – «Tabgaç halkında bek olacak erkek çocuğu ile köle oldu, güzel kız çocuğu ile cariyeye oldu» (K.7).

Neçä mä opraq kedük ersä, yaımurqa yarar. – «Giyim ne kadar eski olsa da yağmura yarar» (DLT, 337).

Boş nāñkä idi bolmas. – «Boş şeyin iyisi olmaz» (DLT,135).

Tay tayqa qawuşmas, kişi kişikä qawuşur. – «Dağ dağa kavuşmaz, insan insana kavuşur» (DLT, 238).

Köklär kesäk-kesäk bolu yazdı. – «Gökler kesek kesek [yani parça parça] oluverdi» (Tef. 175).

Bir cümlede diğer kelime grupları da (isim, sıfat, sayı vb.) yüklem olabilir.

I. Günümüz Özbekçesinde kullandığımız *-dir* bildirme eki, yardımcı fiilin geniş zaman ekli *turur*'un kısaltılmış halidir. Gelişimi şöyledir: *turur / durur > -tur / -dur > -dir*.

Turur'un kökü *tur-* olup, yazılı anıtların dilinde iki işlevi vardır: Birincisi bağımsız fiil, ikincisi ise yardımcı fiildir. Kaşgarlı Mahmud *tur-* fiilinin anlamlarını açıklamıştır. Birincisi "kalkmak, ayağa kalkmak" anlamına gelir. Bu durumda bağımsız bir fiil halindedir: *er yuqaru turdı. Divanü lügati't-Türk'te tur-* yardımcı fiili şu şekilde tanımlanıyor: "*turur*, geçmiş zaman ve mastar biçimleri olmayan gelecek zaman fiilidir. ... Bu kelime, konuşma anında bir şeyin yerinde sabit olduğu anlamına gelir. Örneğin *ol ewdä turur*, "o evdedir". Bu cümlede bu kelime "*ayakta durmak*" anlamına sahip değildir. Veya *er sögäl turur* - "kişi hastadır". Burada "*durmak*" anlamı yoktur (DLT, 386).

Yazılı metinlerin dilinde cümlenin isim soylu yüklemeleri sıfatlar, sayılar, zamirler, zarflar, fiilimsiler ve edatlar aracılığıyla da temsil edilir. Doğal olarak bu tür cümlelerin yüklemi mantıksal olarak *turur*'u gerektirir. *Divanü lügati't-Türk'te* bir atasözü vardır: *Erdäm başi til*. Anlamı: "Dil, erdem başıdır" (DLT, 55). Atasözü basit bir cümle halinde olup, öznesi *erdem başi*, yüklemi *til'dir*; mevcut geleneksel dilbilgisi kurallarına göre, bir isim soylu yüklemidir. Ancak

mantıksal olarak kendisinden sonra *turur*'a ihtiyaç duyulmaktadır: *til turur*, yani "dildir".

II. Dil tarihinde fiile gelen şahıs eki de cümlelerin yüklemine oluşturabilir. Bunu aşağıdaki örnekte göreceğiz.

Tonyukuk yazıtı şu cümle ile başlar:

B'İL'GÄ : TOÑuQuQ : B'äN'ÖZüM : TaBGaÇİL'iDÄ : QİLNTiM

Bilim adamları cümlelerin anlamını farklı vermişlerdir. Burada cümlelerin yüklemiyle ilgili düşünceleri belirleyici olmuştur. Osman F. Sertkaya burada iki cümlelerin bulunduğunu vurgular: Metinde *bän*, ilk cümlelerin yüklemine oluşturan şahıs ekidir. Bundan sonra gelen *özüm* ise bir sonraki cümlelerin öznesidir: *Bilgä Toñuquq-bän. Özüm Tabyaç äliñä qilintim* (Sertkaya 1995, 41-44). Cümle *Bilgä Toñuquq, bän özüm Tabyaç äliñä qilintim* şeklinde anlaşılrsa yazıtın resmi statüsü zayıflıyor; sanki sıradan bir biyografi olarak kalıyor. Nitekim benzer ifadeler Yenisey metinlerinde de görülür: *Külüg apa-ben* (E.20.2); *Er atim Yaruq tigin-ben* (E.19.1); *Atim El Toyan Tutuq-ben*. (E.1.2); *Er atim Kök Tirig-ben*. (E.51.1); *Beg Tarqan Ögä Tirig-ben* (E.53.3). Tonyukuk yazıtındaki *Bilgä Toñuquq-bän* cümlesinde şahıs eki aslında doğrudan isme bağlanmamaktadır. Yüklemi sağlayan *turur*'a bağlanmaktadır. Bu durumda cümlelerin tam olarak yeniden düzenlenmiş şekli şu şekildedir: *(Ben) Bilgä Tonuquq (turur)-ben. Özüm Tabyaç äliñä qilintim*.

III. Yazılı eserler dilinde vurgu anlamını veren *ol* da isim cümlelerinin yüklemine sağlar. Bu durum Kaşgarlı Mahmud tarafından da dile getirilmiştir (DLT,30).

Hem konuşmada hem de metinde isim soylu yüklem, her şeyden önce bir ögeyi ayırt etmeye, anlamı vurgulamaya, yani cümle vurgusunu (mantıksal vurgu) sağlamaya hizmet eder. Konuşmada bu öge diğerlerine göre daha vurgulu söylenir. Aynı zamanda, cümle yapısının gramer ve üslup açısından iyileştirilmesi, cümle yapısında tekrarlardan kaçınılması, üslup güzelliği ve kısalık için çaba gösterilmesi ilkesine dayanarak, fiiller dışındaki kelimeler de yüklem haline gelebilir. Fiil dışındaki kelimelerin de cümlede yüklem haline gelebilmesinin, yüzlerce yıl boyunca konuşma ve metin kompozisyonu pratiğinde uzun bir tarihsel-dilbilimsel gelişmenin sonucu olduğu söylenebilir. Ancak yüklem fiil dışındaki kelimelerle ifade edilmesi göreceli bir durumdur. Zira isim soylu bir yüklem olsa da her durumda mantıken *turur*, Özbekçede ise *-dir* bildirme ekini gerektirir. Bu nedenle bir cümlelerin kuruluşunda mantıksal olarak bir fiil her zaman gereklidir.